

## RAQAMLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA YANGI O‘ZBEKISTONNING TA’LIM TIZIMI (YANGILANISH VA ISLOHOTLAR MISOLIDA)

*Xudayorova Zebuniso Otanazarovna*

*QK xizmatchisi, Chirchiq OTQMBYU*

*Gumanitar fanlar kafedrasida katta o‘qituvchisi*

*[matquliyevjasur@gmail.com](mailto:matquliyevjasur@gmail.com)*

*+998958304990*

**Annotsiya:** Maqolada raqamlashgan jamiyat sharoitida Yangi O‘zbekistonda ilm- fan rivoji va amalga oshirilayotgan islohatlarning ta’lim tizimiga ta’siri hamda ma’naviy hayotning yuksalishiga muhtaram prezidentimiz tamonidan qaratilayotgan e’tibor masalalari yoritilib, falsafiy tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Raqamlashgan jamiyat, Taraqqiyot strategiyasi, Yangi O‘zbekiston, ilm- fan, ma’rifat, innovatsiya, globallasuv, integratsiya.

**Аннотация:** В статье освещаются и философски анализируются вопросы развития науки в Сифровом обществе новом Узбекистане и влияние проводимых реформ на систему образования, а также внимание, уделяемое нашим уважаемым президентом подъему духовной жизни.

**Ключевые слова:** Сифровое общество, Стратегия развития, новый Узбекистан, наука, просвещение, инновации, глобализация, интеграция.

**Abstract:** The article will cover the issues of attention paid to the development of Science and the impact of the reforms carried out in a digital society the new Uzbekistan on the education system, as well as the growth of spiritual life from the president of the Republic of Uzbekistan and provide a philosophical analysis.

**Keywords:** Digital society, Development Strategy, New Uzbekistan, science, enlightenment, innovation, globalization, integration.

Ma’lumki, yoshlar yangicha fikrlashga, yangi-yangi g‘oyalarni dadil o‘rtaga tashlab, ularni amalga oshirishga, muammolarni ijodiy va nostandart yondashuvlar asosida hal etishga moyil bo‘ladi. Shuning uchun hozirgi kunda yosh avlod vakillarining bilim olishi, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san’at va sport sohasidagi iste’dod va salohiyatini yuzaga chiqarishi, ularning jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga ustuvor ahamiyat bermoqdamiz.

Bugun kundalik hayotimizda Yangi O‘zbekiston degan tushuncha juda tez-tez yangramoqda va chuqur ma’no kasb etib bormoqda . ushbu davr eng avvalo, xalq hokimiyatchiligining amaldagi ifodasini o‘zida aks ettirayotganligi bilan yanada ahamiyatlidir. Bundan tashqari keying besh yil davomida amalga oshirilayotgan barcha

“Barchamiz jiplashib, tinimsiz o‘qib- o‘rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o‘zimizni ayamasdan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o‘zgaradi”<sup>1</sup>, deya ta’kidlagan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Ha chindan ham bugungi shiddat bilan tinimsiz rivojlanayorgan kunlik yangilik va o‘zgarishlar aqlbovar qilmis darajada o‘sayotgan ,integratsiyalashuv jarayonlarida eng avvalo tinimsiz o‘qib- o‘rganishlar va izlanishlar natijasida egallanayotgan bilim va ilm-fan omiligina insonga tayanch bo‘la oladi. Zero ilmsiz inson hech vaqosi yo‘q kimsadek go‘yo.

Imom Buxoriy bobomiz to‘plagan muborak hadislardan birida: “Yoshlikda o‘rganilgan ilm toshga o‘yilgan naqsh kabidir”, deb aytiladi. Buyuk allomalarimiz ana shunday hikmatlarga amal qilib, ilm-fan sohasida buyuk kashfiyotlarni amalga oshirganlari va umumbashariy tafakkur rivojiga hissa qo‘shganlari tarixdan yaxshi ma’lum.

Ana shunday qutlug‘ an‘analarni davom ettirib, yurtimizda yangi xorazmiylar, farg‘oniylar, beruniylar, ibn sinolar. mirzo ulug‘beklar, navoiylarni tarbiyalab yetkazish-nafaqat vazifamiz, balki tarix va kelajak oldidagi muqaddas burchimizdir<sup>2</sup>.

O‘z –o‘zidan ko‘rinib turibdiki, yuroridagi omillarning barchasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan, islohatlarning tub mohiyati aynan madaniyat, ilm- fan va yuksak ma’naviy qarashlarni yanada yuqori pag‘onalarga olib chiqish hamda ertanagi kunga bo‘lgan xalq ishonchini kuchaytirishga asoslanganligini amaldagi ifodasidir<sup>3</sup>.

Shu o‘rinda, mamalakatimizda yuqori bilim va malakaga ega bo‘lgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadida oliygohlar soni 141 taga yetkazildi, 26 ta xorijiy oliy ta’lim muassasasining filiallari ochildi. Holbuki 2016-yilda respublikamizda oliygohlarning soni 77 ta edi. Keyingi besh yilda oliy ta’limga qqabuk kvotasi 3 barobar oshirilib, joriy yilda 182 ming nafar yoshlar uchun talab bo‘lish imkoniyati yaratildi. Toshkent shahrida eng yuksak xalqaro talablarga javob beradigan “Yangi O‘zbekiston” universiteti tashkil etildi. Hozirgi vaqtda yurtimizda “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan g‘oya asosida maktab ta’limi tizimida ham katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.<sup>4</sup>

Bu ishlarning zamirida avvalo mamlakatimiz va xalqimizning buyuk kelajagi, farovon va obod turmushi, erkin va tinch-osuda hayot tarzini ta’minlash hamda barqaror rivojlanish yo‘liga erishish yotadi. Chunonchi yuqoridagi barcha maqsadlarga boorish uchun eng to‘g‘ri, maqbul va albatta mukammal yo‘l bu ilm-ma’rifat yo‘lidir. Manashu joyda fikrimiz isboti o‘laroq quyidagi jummalarni keltirib o‘tmoqchiman:

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга мурожаатномаси.2020 й

<sup>2</sup> Мирзиёев .Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.- Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021.-Б.51.

<sup>3</sup> Худаёрова З.О. “Digitization in the educational system of new Uzbekistan: problems and prospects”( Янги Ўзбекистон таълим тизимини рақамлаштириш: муаммо ва истиқболлар). ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, Vol. 12, Issue 10, October 2022.(SJIF 2022=8.252)

<sup>4</sup> Мирзиёев .Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.- Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021.-Б.- 52-53.

“Ma’orifdan, funun va madaniyatdan mahrum qolg‘on xalq jaholat panjalarini orasida xamir kabi ezilg‘ondek, af’oli zamimadan ham o‘z nafsining yoqasini bo‘shatolmas”- deb yozgan edi mashhur ma’rifatparvar adibimiz Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yohud ahloq” nomli asarida<sup>5</sup>. Ha chindan ham barcha jaholat zanjirlari-yu, qulflarini buzuvchi narsa bu ilmdir.

Aynan shu sabablar inobatga olingan holda muhtaram prezidentimiz tamonidan mamlakatimizni rivojlantirishga va taraqqiyotimizni yanada yuksaltirishga qaratilgan “Harakatlar Strategiyasi” va “Taraqqiyot strategiyasi” davlat dasturlari ishlab chiqilgan bo‘lib, bu davlat dasturlarida ham ilm-fan va madaniyat, ma’naviyat sohasiga alohida e’tibor va g‘amho‘rlik bilan yondoshganlar. Bu ishlarning barchasi xalqimiz ertasi bo‘lmish yosh avlodni ma’nan, jismonan va aqlan yetuk hamda barkamol shaxs sifatida kamol topishlari uchun xizmat qiladi, 2017-2021- O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi qabul qilindi. Bu esa davlat va xalq o‘rtasidagi aloqa ular orasidagi munosabatni o‘zgartirishni, ya’ni xalq idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi zarurligini bildiradi.<sup>6</sup>

Ayniqsa, so‘ngi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslari yaratildi. Taraqqiyot strategiyasi doirasida Jahon miqyosida murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keying yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqorolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida<sup>7</sup> bir nechta ishlarni amalga oshirish belgilangan bo‘lib, ulardan birida vazifalar quyidagicha belgilangan:

“Taraqqiyot strategiyasida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar doirasida 2022-yilda:

a)1 apreldan boshlab nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari va maktablarga farzandlarini yuborayotgan ota –onalarning oyiga 3 million so‘mgacha bo‘lgan to‘lovlari daromad solig‘idan ozod etilsin.

b) o‘rta ta’lim tizimini zamon talablariga moslashtirish maqsadida:

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirish uchun Davlat byudjetidan 605 milliard so‘m ajratilsin.”<sup>8</sup>

<sup>5</sup> Али, Мухаммад Ўз-ўзингни англаб ет.- Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 2012.-Б.347.

<sup>6</sup> Гаффарова Г.Ф. Мураккаб тизимларда ахборот генерацияси. Тошкент.”Ношир” нашриёти. 2021.-Б.178.

<sup>7</sup> 2022-2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида ПФ-60, <https://lex.uz>. 28.01.2022. –Б-2,3.

<sup>8</sup> Ўша манба. –Б-3

Bugun hayotimizga Kundalik.com, Edu.uz, XEMINS kabi bir nechta onlayn platformalar ham kirib kelgan bo'lib, ular o'z o'rnida raqamlashtirish jarayonlarining ta'lim tizimiga naqadar shiddat bilan kirib kelgani-yu uning bir nechta ijobiy ustunlik jihatlariga misol bo'la oladi.

Ushbu yaratilgan barcha imkoniyatlardan kelib chiqib bugun yoshlarimiz, davlatimiz va prezidentimiz tamonidan berilayotgan imkoniyat va ishonchga mos ravishda ta'lim tizimi, ilm-fan va innovatsion loyiha hamda startaplarni yaratishda o'zlarini ko'rsatib, munosib javob qaytarmoqdalar.

Shu o'rinda dunyoni larzaga solgan pandemiya holatida offlayn ta'lim tizimi o'rnini vaqtinchalik egallagan onlayn ta'lim tizimi jarayonlari xalqimiz joniga opo kirganligini tan olmaslikning hech qanday imkoni yo'q. Zero ushbu ilm-fan kashfiyoti bo'lmish raqamlashtirilgan dasturlar va onlayn platformalar orqali biz xalqimizning va insoniyatning tayanch ustuni bo'lmish ta'lim tizimini uzilishsiz olib borishga erisha oldik.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosa qilishimiz mumkinki, barcha islohotlar va amalga oshirilayotgan hamda rejalashtirilayotgan ishlarning tub zamirida mamlakatimizda bugungi kunda ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tibor misli ko'rilmagan darajada rivojlanib bormoqda va zamon bilan hamnafasdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida PF-60, <https://lex.uz>. 28.01.2022. –B-2,3.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi.2020 y
3. Mirziyoyev .SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.-B.51.
4. G'affarova G.G'. Murakkab tizimlarda axborot generatsiyasi. Toshkent."Noshir" nashriyoti. 2021.-B.178.
5. Ali, Muhammad O'z-o'zingni anglab yet.- Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2012.- B.347.
6. Xudayorova Z.O. "Digitization in the educational system of new Uzbekistan: problems and prospects"( Yangi O'zbekiston ta'lim tizimini raqamlashtirish: muammo va istiqbollar). ASADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, Vol. 12, Issue 10, October 2022.(SJIF 2022=8.252)